

REDUCED INEQUALITIES

NAMANGAN STATE UNIVERSITY

Namangan davlat universitetida tengsizlikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumot

Namangan davlat universitetida 2022-yilda **27 026 nafar** talaba shundan **25 820 nafar** talabalar **bakalavriat**, **1206 nafar** **magistratura** bosqichida tahsil olmoqda. Kunduzgi ta'limda 13 701 nafar, shundan 8899 nafar xotin-qizlar, kechki ta'limda 3246 nafar, xotin-qizlar 1966 nafar, sirtqi shaklda 8873 nafar talaba-yoshlar, shundan 6047 nafar xotin-qizlar tahsil olmoqda.

<https://t.me/namdu309/12585>



2022-yil universitetga 47 ta ta'lim yo'nalişiga **2940 nafar** shundan, 1646 nafar xotin-qizlar talabalikka qabul qilindi. Kunduzgi ta'limga 2104 nafar, shundan 1241 nafar xotin-qizlar, kechki ta'limda 311 nafar shundan 161 nafar xotin-qizlar, sirtqi ta'lim shakliga 525 nafar shundan 244 nafar xotin-qizlar talabalikka qabul qilindilar.



2022-o'quv yilida qabul qilingan 2940 nafar talabalarning ooila a'zolari ichida ilk martta oliy ta'limda o'qiyotgan talabalar **2499 tani (85 foiz)** tashkil etdi. Shulardan **1498 nafari (91 foiz)**ni xotin-qizlar tashkil etadi.

<https://t.me/namdu309/14672>

O'qishga qabul qilingan talabalarning **17 tasi xorijlik fuqarolar** tashkil etadi. Ular **Rossiya Federatsiyasi**, **Qozog'iston**, **Qirg'iziston** Respublikalaridan ta'lim olish uchun Namangan davlat universitetiga tashrif buyurdi.



Universitetda 2022-yilda 27 026 nafar talabalarning orasida nogironligi mavjud talabalar **224 nafar**, shundan **128 nafar** qizlar tashkil etadi.

REDUCED INEQUALITIES

NAMANGAN STATE UNIVERSITY

Tayanch harakati a'zolarida nuqsonlik **58 nafar**, shundan, **31 nafari qizlar**. Ichki kasalliklar va boshqa kasalliklar bo'yicha **131 nafar**, shundan, **85 nafari qizlar**. <https://t.me/namdu309/14661>

Namangan davlat universitetida **224 nafar** nogironligi mavjud talabalar mavjud, shundan **128 nafari qizlar**. **1-guruh** nogironligi mavjud talabalar **20 nafar**, **2-guruh** nogironligi mavjud talabalar soni **183 nafar**, **3-guruh va boshqa turli xil nogironligi** bor talabalar **25 nafarni** tashkil etadi. Namangan davlat universitetida mavjud talabalar turar joylarida jami **1294 nafar** talabalar shundan, **393 nafar o'g'il, 834 nafar xotin-qizlar** istiqomat qilmoqda. Shunlardan, boshqa viloyat **799 nafar**, shundan qizlar **504 nafar**, **1-2-guruh** nogironlari **47 nafar**, shunda qizlar **27 nafar**, ko'zi ojiz talabalar soni **7 nafar**, shundan qizlar **3 nafar**, imtiyoz asosida yetuvchilar **79 nafar**, shundan qizlar **48 nafar**, boquvchisini yo'qotgan talabalar **40 nafar**, shundan qizlar **25 nafar**, chin yetim talabalar **3 nafar**, ijtimoiy himoya reestridagi talabalar **19 nafar** talabalar mavjud. Namangan davlat universitetining Namangan shahrida joylashgan 1-2-3-talabalar turar joyida **28 nafar** 1 va 2-guruh nogironligi mavjud talabalar universitet hisobidan bepul istiqomat qilmoqdalar. Universitetda tahsil olayotgan **2 nafar** talabalarga davolanish uchun 10 baravar, **1 nafariga** 6 baravar miqdorida moddiy yordam ko'rsatildi. "Ijtimoiy faollik indeksi" mezonlariga mos keluvchi 565 nafar talabalar, shulardan, **57 nafar** nogironligi mavjud talabalar bazaviy stipendiyaning 50% miqdorida 1 marttalik rag'batlantirildi. Universitetda tahsil olayotgan 1-2-guruh nogironligi mavjud talabalar bazaviy stipendiyaning oshirilgan 50 % miqdorida har oyda rag'batlantirib kelinmoqda. Namangan davlat universitetining barcha binolarida maxsus yo'lakchalar – pandus tashkil etilgan. Shuningdek, universitet axborot resurs markazlarida ko'zi ojiz talabalar uchun adabiyotlar ajratilgan. Talabalar turar joylarida nogironligi mavjud talabalarga qulaylik yaratish uchun barcha sharoitlar yaratib berilgan. 2022-yil davomida Namangan davlat universiteti Yoshlar bilan ishslash va ma'naviyat-ma'rifat bo'limi tomonidan tashkil etilgan ko'rik-tanlovlarda **4 nafar** nogironligi mavjud talabalar g'oliblar savidan joy oldi. Tanlov me'zoni asosida talabalar rag'batlantirish jamg'armasi hisobidan moddiy rag'batlantirildi.



2022-yil 3-dekabr kuni "**Xalqaro nogironlar kuni**" munosabati bilan **42 nafar** ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi mavjud talabalarga bazaviy hisoblashning 1 baravari miqdorida bir marttalik moddiy rag'batlantirish ajratildi. <https://t.me/namdu309/14660> Namangan davlat universitetida tashkilot sifatida **kamsituvchi bo'Imagan qabul siyosatiga ega** hisoblanadi. Shuningdek 2022-yil davomida **11 marotaba** ochiq ish o'rinnari bo'yicha, **42 marotaba o'qishga** qabul qilish bo'yicha ochiq e'lonlar berdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, davlat qonunchiligi, universitet ichki tartib qoidalariidan kelib chiqib barcha uchun qonun-qoidalalar tengligiga amal qiladi va bu bo'yicha o'zining strategiyasiga ega. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan na'munaviy odob-axloq qoidalari asosida Namangan davlat universiteti kengashi tomonidan 2022-yil 18-mart kuni 8-sonli bayon asosida "Odob-axloq qoidalari" tasdiqlandi. Ushbu odob-axloq

REDUCED INEQUALITIES

NAMANGAN STATE UNIVERSITY

qoidalari 10-bob, 36-moddadan iborat hisoblanadi. 2021- 2022-o'quv yili davomida ushbu qoidalarga amal qilmaslik holatlari kuzatilmadi. Namangan davlat universitetida otonalar va faol talaba-yoshlardan iborat nazorat kengashlari tashkil etilgan. Ushbu kengash o'z faoliyati davomida "odob-axloq qoidalari", "Ichki tartib qoidalari" va "Mobil telefonlardan foydalanish tartibi to'g'risida nizom"ning bajarilishi yuzasidan monitoring ishlarini olib borilmoqda. <https://t.me/namdu309/9065>



Namangan davlat universitetida etnik ozchiliklar, kam ta'minlangan talabalar, noan'anaviy talabalar, ayollar, nogiron talabalar va yangi joylashtirilgan qochqin talabalar kabi kam vakillik (va potentsial kam vakillik) guruhlarning arizalari va qabullari barcha O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kabi teng, oshkoraliq prinsipi asosida qabul qilinadi. Jumladan 2022-yil universitetda tahsil olayotgan 1165 nafar Kam ta'minlangan oila farzandlari (IHYaR) talaba-yoshlar, 435 nafar Temir daftardagi oila farzandlari, 21 nafar Ota-onasi ota-onalik huquqidan mahrum etilganlar, 17 nafar Mehribonlik uyi va Bolalar shaharchasida tarbiyalangan yoshlar, shuningdek 224 nafar nogironligi mavjud talabalar universitet tomonidan ijtimoiy, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlab kelinmoqda. Ular tomonidan berilgan taklif va arizalari muntazam o'rGANilib tegishli ishlar amalga oshirilmoqda. Namangan davlat universitetida fuqarolarning murojaatlari O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi 2017-yil 11-sentyabrdagi O'RQ-445-sonli Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 341-sod "Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risida"gi namunaviy Nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorga asosan ish olib borilmoqda. Universitetda 2022 yilda jami 200 ta murojaat kelib tushgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan murojaatlar soni 138 tani tashkil etadi. Murojaatda ko'tarilgan masalalar: 2-mutaxassislik masalasi - 81 ta, o'qishni ko'chirish va tiklash masalasi - 22 ta, kontrakt-to'lov masalasi-13 ta, o'qishga kirish masalasi – 9 ta, ish bilan ta'minlash masalasi -4 ta, turli masalalar- 9 ta. Murojaat turlari: Ariza - 135 ta, shikoyat -1 ta, taklif -2 ta. Murojaatlarni ko'rib chiqish holati:



REDUCED INEQUALITIES

NAMANGAN STATE UNIVERSITY

Ijobiy hal etilgan - 31 ta

Huquqiy tushuncha berilgan- 103 ta

Hozirgi kunda o'rganish jarayonida - 4 ta.

<https://t.me/namdu309/11372>

Namangan davlat universitetida kamsitish va ta'qibga qarshi o'z nizomlariga ega. Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan na'munaviy odob-axloq qoidalari asosida Namangan davlat universiteti kengashi tomonidan 2022-yil 18-mart kuni 8-sonli bayon asosida "Odob-axloq qoidalari" tasdiqlandi. Ushbu odob-axloq qoidalari 10-bob, 36-moddadan iborat hisoblanadi. 2021-2022-o'quv yili davomida ushbu qoidalarga amal qilmaslik holatlari kuzatilmadi. Namangan davlat universitetida ota-onalar va faol talaba-yoshlardan iborat nazorat kengashlari tashkil etilgan. Ushbu kengash o'z faoliyati davomida "odob-axloq qoidalari", "Ichki tartib qoidalari" va "Mobil telefonlardan foydalanish tartibi to'g'risida nizom"ning bajarilishi yuzasidan monitoring ishlarini olib borilmoqda. <https://t.me/namdu309/9092>



Namangan davlat universitetida ma'muriyat yoki boshqaruvin organi tomonidan xilma-xillik, tenglik, inklyuzivlik va insonparvarlik bilan bog'liq siyosat, dasturlar va treninglar bo'yicha maslahat berish va amalga oshirish uchun topshirilgan xilma-xillik va tenglik qo'mitasi, idorasasi va xodimi (yoki unga tenglashtirilgan) shaxsi faoliyat yuritadi. Jumladan, Fuqarolar murojaatlari bilan ishlash bo'limi, Korrupsiyaga qarshi kurash va komplaens nazorat bo'limi, Yoshlar bilan ishlash va ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, Xotin-qizlar bo'yicha dekan o'rinosarlari va rektor maslaxatchisi faoliyat yuritmoqda. <https://t.me/namdu309/10124>



REDUCED INEQUALITIES

NAMANGAN STATE UNIVERSITY

Universitet tomonidan biriktirilgan **10 ta** MFYlarda **21171** nafar yoshlar bo'lib 18-30 yoshdagilar **8809 nafarni** tashkil etadi. "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari"ga kiritilgan **1400 nafar** yoshlar uchun **25 ta bepul** ingliz tili, rus tili, nemis tili kurslari, **30 ta** matematika, fizika, IT, biologiya va boshqa fan to'garaklari, **10 ta psixologik** xizmat, 10 ta musiqiy ansambl, **10 ta** tadbirkorlik kurslari, **20 ta** sport to'garaklari tashkil etildi. Shuningdek universitet professor-o'qituvchilari tomonidan universitetda tashkil etilgan to'garaklarga uyushmagan yoshlar qamrab olingan. Obi-hayot, Sharq tongi, Diyor MFYlaridagi "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 120 dan ortiq uyushmagan yoshlar viloyatning Axsikent majmuasi, Ibrat muzeyi, Sulton Uvays Qaraniy majmualariga sayohatga olib borildi. Biriktirilgan MFYlarda universitet talabalari va uyushmagan yoshlar o'ttasida **32 marotaba** sport musobaqlari, **35 ta ijodiy** uchrashuvlar, **85 ta** ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, **12 ta** ekskursiya va sayohatlar tashkil etildi.



Namangan davlat universitetida 2022 yil davomida mahallalarda targ'ibot tadbirlarini tashkil etish, keng qamrovli islohotlar targ'ibotida professor-o'qituvchilarning faol ishtirokini ta'minlash orqali mahallalarda targ'ibot tadbirlari tashkil etish tizimini shakllantirishga erishildi. Mahallalarda yashaydigan fuqarolarning islohotlar va Vatan taraqqiyotiga nisbatan daxldorlik hamda shukronalik tuyg'ulari kuchaytirildi. Jumladan, mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash maqsadida, "Bir ziyoli – bir mahallaga ma'naviy homiy" tamoyili asosida Namangan davlat universitetidan **291 ta**, shu jumladan, Namangan shahrida **79 ta**, Davlatobod tumanida **25 ta**, Chortoq tumanida **57 ta**, Namangan tumanida **53 ta**, Pop tumanida **77 ta** MFYlariga tajribali professor-o'qituvchilari biriktirildi. Biriktirilgan mahallarga 2022 yil davomida **450 dan** ortiq tashriflar, **300 ga yaqin** ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etildi. Ushbu tadbirlarda mahallalardagi **13 000 dan** ortiq fuqarolar qamrab olindi. Tashrif davomida professor-o'qituvchilar tomonidan mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarni natijalari, mahallada aholi o'ttasida ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, bitiruvchi sinf o'quvchilarini oliy ta'limga jalb etish masalalari yuzasidan uchrashuvlar tashkil etildi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2022 yil 13 aprel kuni "Mamlakatimizda yoshlar bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish choratadbirlari"ga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida Namangan davlat universitetining **678 nafar** professor-o'qituvchilari yuqori kurs talabalari

va magistrantlari bilan hamkorlikda universitet atrofida joylashgan **10 ta** Baynalminal, Bo'ston, Sharq tongi, Chorsu, Obi-hayot, Nurafshon, Diyor, Qadamjo, Ilg'or, Boburshoh kabi mahallalardagi ming nafardan ortiq yoshlar, xususan, uyushmagan yoshlarni ilm va kasbga yo'naltirish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ijtimoiy holatini yaxshilash, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini tashkil etish belgilangan. Namangan shahridan universitetga biriktirilgan **10 ta** MFYlarda ma'naviy muhitni yaxshilash hamda uyushmagan yoshlarga milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimiz to'g'risida tushunchalar berib borish maqsadida universitet professor-o'qituvchilari hamda mahallalar faollari ishtirokida "Maslahatchi otaxonlar" hamda "Mo'tabar onaxonlar" maktablari tomonidan mahalladagi tajribali otaxonlar va onaxonlar tomonidan uyushmagan yoshlar bilan **31 marotaba** davra suhbatlari tashkil etildi. shuningdek **10 ta biriktirilgan** MFYlarda Psixologik markazlar tashkil etilib **10 ta** professor-o'qituvchi va **64 ta** talabalar tomonidan tarbiyasi og'ir, jinoyatchilikka moyil bo'lgan yoshlar hamda yosh oilalarda ajralishlarni oldini olish bo'yicha **46 marotaba** targ'ibot va tushuntirish ishlari olib borildi. Universitetdan **75 nafar** iqtidorli talabalar hamda mahallalardagi **56 nafar iqtidorli** yoshlardan iborat ilm olish va kasbga qiziqtiruvchi "Motivasion-targ'ibotchi" guruhi tomonidan mahallalarda **58 marotaba** tadbirlar o'tkazildi. Namangan davlat universitetida iqtidorli, faol va tashabbuskor talabalardan iborat "Ko 'ngillilar" o'z-o'zini boshqarish organi tashkil etildi. Mazkur guruhni tashkil etishdan asosiy maqsad – talabalarni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, Ona Vatanga muhabbat, buyuk ajdodlarga munosib avlod bo'lish ruhida tarbiyalash, Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli oqilona siyosat mazmun-mohiyatini joylarda targ'ib etishga jalb etish, sog'iom turmush tarzini ommalashtirishdan iborat etib belgilandi. Hozirgi kunga kelib "Keksalar holidan xabar olish volontyorlik guruhi" tomonidan **50 dan** ortiq uchrashuvlar tashkil etdi. Uchrashuvlarga talaba-yoshlardan iborat **320 nafardan** ortiq yoshlar qamrab olindi. Namangan davlat universiteti professor-o'qituvchilari boshchiligidagi yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash maqsadida hayotiy tajribaga ega bo'lgan nuroniylar bilan doimiy tarzda uchrashuvlar tashkil etilmoqda.

<https://t.me/namdu309/14336>

<https://t.me/namdu309/13451>

<https://t.me/namdu309/12934>